

OGAHIY TARIXIY ASARLARIDA MA'MURIY-HUDUDiy BO'LINISH BILAN BOG'LIQ IJTIMOYIY-SIYOSIY QARASHLAR

Kalandarova Mavluda Amanbayevna

(URDU mustaqil tadqiqotchisi)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ogahiy asarlarining lingvistik jihatdan o'rganish, uning til xususiyatlarini batafsil yoritish maqsad qilib olingan. Ogahiy asarlaridagi ma'muriy-hududiy bo'linish bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy qarashlar birma-bir yoritilgan, ularning sinonimlari, grammatik ko'plikda qo'llanishi izohlab berilgan.

Kalit so'zlar: tarixiy asarlar, mamlakat, viloyat, tuman, qal'a, muzofot, yurt, shahar.

Аннотация: Целью данной статьи является изучение творчества Огахи с лингвистической точки зрения, детальное освещение его языковых особенностей. Поочередно поясняются общественно-политические взгляды, связанные с административно-территориальным делением в творчестве Огахи, объясняются их синонимы и употребление во множественном числе.

Ключевые слова: исторические произведения, страна, область, уезд, крепость, губерния, страна, город.

Abstract: The aim of this article is to study Ogahi's works from a linguistic point of view, to shed light on his linguistic features in detail. The socio-political views related to the administrative-territorial division in Ogahi's works are explained one by one, their synonyms and usage in grammatical plural are explained.

Key words: historical works, country, region, district, fortress, province, country, city.

O'zbek millati dunyoning barcha xalqlariga ham nasib etavermagan katta ma'naviy merosga ega. "Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi tosh yozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinalarida saqlanayotgan yigirma mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, til va adabiyot, san'at, siyosat, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir".

Biror xalqning muayyan sohada erishgan yutuqlari o'sha xalq tilining leksikasida o'z aksini topadi. Shu ma'noda o'zbek tili leksikasining salmoqli va ko'p qirraligi ajdodlarimizning ilm fanning turli sohalarida peshqadam bo'lganliklari hamda jahon ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'rin tutganliklari bilan izohlanadi.

Ogahiy asarlarini lingvistik jihatdan o'rganish hanuzgacha dolzarb muammoligicha turibdi. Ogahiy asarlari til xususiyatlariga bag'ishlangan ilk maqola S.Dolimov tomonidan e'lon qilingan. Ushbu maqolada olim Ogahiyning omonim va sinonim so'zlardan foydalanishda gipoetik mahoratini ochib beradi.

Jumladan, XI-XIV asrlar yozma yodgorliklari tilidagi ma'muriy-hududiy bo'linishni ifodalovchi ijtimoiy-siyosiy so'zlar maxsus tadqiq qilingan. Ogahiyning tarixiy asarlaridagi ma'muriy-hududiy bo'linish bilan bog'liq so'zlar tadqiq qilingan davr yozma yodgorliklari tilidan keskin bo'lmasa ham farq qiladi. Ogahiy tarixiy asarlarida ma'muriy-hududiy bo'linish bilan bog'liq quyidagi so'zlar uchraydi:

mamlakat - davlat, mamlakat:

qasdi edi mamlakat oroyishi,

komi edi xalqning osoyishi.

Ushbu so'z solnomalar davomida ayrim o'rinlarda viloyat ma'nosida ham ishlatilgan: *...yakshanba kuni ul hazrat livoyi nusrathavoni Xazorasb mamlakatidin mutaharrik va shuqqakushoqilib...*

Shuningdek, *mulk va davlat* so'zlari ham mamlakat so'zining sinonimi sifatida ishlatilgan:

qilib tadbir-u qo'shish ehtimomin,

tuzatdi mulk-u davlat intizomin.

Asardan joy olgan quyidagi parchada vatan so'zi ham umumiste'moldagi ma'nosi, ham ma'muriy birlik ifodalovchi ijtimoiy-siyosiy so'z sifatida ishlatilgan:

kishikim, yamonlig' erur shevasi,

kelur har nafas boshiga yuz balo.

aloyi vatan aylab ani falak,

qilur g'urbat anduhiga muhtalo.

Asardagi ushbu parcha mansub matn mazmuni "Vatandan judo bo'lish" mazmunidagi jaloyivatan birikmasini "mamlakatdan badarga qilinish" ma'nolarida ham tushunishni taqazo qiladi. Davlat, mamlakat ma'nolarini ifodalovchi so'zlardan yana biri ayolatdir. Hozirgi

kunda arab fors tillarida shtat mazmunini ifodalovchi bu so'z Ogahiy va boshqa o'zbek adiblari tilida va mamlakat, davlat ma'nolarini anglatgan.

“Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati’da ushbu so‘zning iyolat shakli ham borligi qayd etilgan. Ogahiy tilida ham bu so'z mamlakat ma'nosida ko‘zga tashlanadi:

Boboxon shoh ayolat taxtida mutamakkin bo‘ldi.

Viloyat - mamlakatning ma'lum ma'muriy bo‘lagi, boshqaruv tizimi bevosita xonlik ixtiyorida bo‘lgan hudud:

Muhammad solih shayxni Marv viloyatiga nomzod qildi.

Kav kabi podshohiy va dabdabayi nomutanohiy bila xazorasb viloyatig‘a vorid bo‘lub..

Ogahiy tarixiy asarlarida ulus so‘zi viloyatning, ayrim o‘rinlarda mamlakatning sinonimi sifatida ham ishlatilgan:

Mazkur bo‘lg‘on ulus (Dashti qipchoq)ning hokimi farmonravosi erdi. Shuningdek, bu so'zning fuqaro; aholi ma'nosida ham ishlatilganini kuzatamiz:

savlatidin larza yer arkonig‘a,

haybatidin ru‘sha ulus jonig‘a.

Chun shohzodayi muallamakon oqdarband ulusin ko‘chirib, saraxs jonibig‘a ravon qildi.

Viloyat mazmunidagi ma'muriy birlik ifodalovchi so‘zlarning yana biri *muzofotdir*. Ushbu so‘zning ijtimoiy-siyosiy leksikaga mansublik kasb qilishiga “qo‘shimcha”, “qo‘shib olingan” tarzidagi lug‘aviy ma'nosi asos bo‘lgan. Demakki, dastlab mamlakatning asosiy hududiga qo‘shib olingan yerlar muzofot deb atalgan va keyinchalik ma'no kengayishi mazkur so‘zning ma'muriy birlik mazmuniga olib kelgan: *Saraxs muzofotidindur, sipohi nusratpanoh kunjoyishiga loyiq arz va umqi ko‘ngul xohishig‘a muvofiq bir sangari vus‘at asar hafr qildurubdur.*

Ogahiyda mazkur so'z ba'zi o‘rinlarda qo‘shni o'zbek xonliklariga nisbatan mamlakatning ma'nodoshi sifatida ishlatiladi:...viloyat (buxoro) hokimi bahodirxon... viloyat so‘zi XI asrdayoq "qutadg'u bilig"da mamlakat, davlat ma'nosida ishlatilgan.

Tuman so'zi mamlakatning bir ma'muriy bo‘lagi, hudud nuqtai nazaridan hozirgi vaqtdagi tumanga teng birlik. Tobe' esa mamlakatga qaram qilingan hududlar ma'nosini beradi va uning ko‘plik shakli tavobe'otdir. Tuman so‘zining ko‘plik shakli tuman ot tarzida ishlatilgan: *to‘qquzoydin so'ng oning inisi bahodirxonkim, jam qilib va buxoro tavobe'otin*

dag 'i taxti hukumatig 'a kirguzib, ko 'p cherik bila kelib buxoro shahrin qabodi. Yurt so 'zi esa mamlakat ma'nosini berishi turkiy tillarning kopchiligiga xosdir. Buni Ogahiy tilida ham kuzatamiz: Umarxonni yurt din ixroj qilib, xo'qand viloyatig'a yubordi. Xorazm yodnomalarida bu so'z yurt; aholi yashaydigan joy; vatan ma'nolarida qayd etilgan. Ushbu ma'nolar Ogahiy tarixiy asarlari leksikasiga ham xos: ...xorazm mamolikining bir tarafidin yerva yurt tiladilar.

Shahr-shahar. XIX asrda ham shaharlar atrofi mudofaa devorlari bilan o'ralgani uchun qal'a va shahar so'zlari qo'llanishida deyarli farq bo'lmagan: *kamolud-davla vaddunyo muhammad nazari noqim, Xivaq shahrida nayobat tariqasi bila qolib erdi...*

Qal'a va balda so'zlari ham shu turdagi so'zlardan hisoblanadi. Ogahiy tarixiy asarlarida ularning ko'plik shakllari qilo va bilod ham ishlatilgan: *...atrof va aknofdagi qilo va bilod hokimlari... qiloqal'aning siniq ko'pligi bo'lsa, to'g'ri ko'pligi eski o'zbek tilidagi qal'ajot shaklida ishlatilgan:jom julgasining qal'ajotidin umg*on otlig qal'akim, qizilbosh xaylining maskani va irtidodahlining ma'mani erdi... ularga sinonim sifatida kent so'zi ham ishlatilgan:*

*to'ldi bori kentu dashtu sahro,
yetti unidin falakka g'avg'o.*

Ogahiy tarixiy asarlarida diyor, mavze so'zlari muayyan ma'muriy hududni anglatmasa ham, aholi yashaydigan joy ma'nosida qishloq, tuman so'zlariga ma'nodoshlik kasb etgan: *...hazratipodshohi karamdastgoh oqdarband eliga marhamat va shavqat ko'rguzib, zey diyorida yer berib,barchasin ul maze'da mutamakkin qildi.*

Qishloqning Ogahiy tarixiy asarlarida harbiy soha so'zi ma'nosidan tashqari hozirgi o'zbek adabiy tilidagi kabi ma'muriy birlik ma'nosini ham uchratamiz: *Ul qishloqda (saraxsdagi qishloqlarning birida) ellik kun iqomat masnadida istirohat ko'rguzdi..*

O'zbek tili tarixiy leksikasida el so'zining ijtimoiy-siyosiy ma'nolari xususida H.Dadaboyev mufassal ma'lumot bergan. "Riyoz ud-davla"da qo'llanilgan bu so'zning ma'muriy birlik sifatidagi ma'nosi qishloqqa to'g'ri keladi: (oqdarbandliklar) holo bir ulug' el bo'lub o'lturubdurur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" - Toshkent: Sharq, 1998. - b.3.
2. Ogahiyning tarixiy asarlari leksikasi // A.O'rozboyev. Toshkent. 2013.

3. Dolimov S. Ogahiy poeziyasida omonim va sinonim soʻzlar //Oʻqituvchilar gazetasi.1957.
4. Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati. Tom I. Toshkent: fan. 1983. - b.45.
5. Komilov N. “Muhammadrizo Ogahiyning tarjimonlik mahorati”. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya ish. – Toshkent, 1970. – B.6.
6. Issues of Education in the Chronicles of the Khiva Khanate-As an Object of the History of Pedagogy. Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education. <https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje>. Vol. 2 No. 1(2024).
7. Rojabovna I. A. O ‘smirlik davridagi o ‘quvchilar tafakkurini o ‘ziga hos xususiyatlari //Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 1242-1248.
8. Razakova R. S., Mohida Q., Shahzoda Q. Bog ‘cha yoshi bolalarda nutq taraqqiyoti //Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 73-79.
9. Saylaubekovna R. R. Fertil atamasi va fertil yoshdagi insonlarning psixologik xususiyatlari //Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2023. – T. 1. – №. 3. – C. 21-24
10. Latipova U. TALABALARDA IJODIY FAOLLIK MOTIVATSIYASI NAMOYON BO ‘LISHINING PSIXOLOGIK MEZONLARI //TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 193-195.
11. Юсуфбоевна ЛУ ЭНДОКРИН КАСАЛЛИКЛАРНИНГ ШАКС ПСИКИКАСИГА ТА’СИРИ //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATIONSALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 19. – C. 804-806.